



Savdo ekvayring

Yangilangan sana: Tue, Dekabr, 11, 2018

Agar korxonangiz to'lovlarni qabul qilish yo'li bilan savdo faoliyatini amalga oshiradigan bo'lsa, Xalq banki taqdim etiladigan tovarlar va xizmatlar evaziga UZKARD banklararo to'lov tizimining boshqa a'zolari bo'lgan barcha banklarning kartalarini to'lov vositasi sifatida qabul qilishga imkon beruvchi xizmatni taklif etadi (savdo ekvayring).

Tovarlar va xizmatlar uchun bank kartalari vositasida to'lov tez amalga oshiriladi, operatsiyani o'tkazish uchun ketadigan vaqt naqd pul bilan hisob-kitob qilishga taxminan teng bo'ladi.

Tashkilot uchun afzalliklar:

- Bank kartalarining saqlovchilarini jalb qilish hisobiga mijozlar bazasini kengaytirish;
- Hisob-kitoblarning xavfsizligini ta'minlash;
- Savdo aylanmasini oshirish (kartalarning saqlovchilari naqd pul miqdori bilan cheklanmagan, va shuning uchun rejalashtirilmagan xaridlar qilishga osonroq ko'nadi);
- Bank tomonidan kerakli uskunalarning o'rnatilishi (savdo terminallari);
- Taqdim etiladigan tovarlar va xizmatlar evaziga to'lash usullari ko'lamining kengayishi;
- Naqd pul mablag'lari inkassatsiyasiga harajatlar kamayishi;
- Bank tomonidan tashkilot xodimlarining o'qitilishi.

Bankning vositachilik haqi, pul mablag'larini qoplash muddati, shuningdek ishlash uchun kerak bo'lgan uskunalarni o'rnatish va unga xizmat ko'rsatish shartlari har bir tashkilot bilan alohida kelishib olinadi

UZKARD so'mlik to'lov tizimining savdo terminalini o'rnatish shartlari va tariflari.

Xizmat turi	Shartlar/tariflar
To'lov terminalari orqali qabul qilingan tushumni inkassatsiya qilish	Bepul
To'lov terminalari uchun yuridik shaxslardan undiriladigan ijara haqi (har bir oy uchun)	10 AQSH dol.*
To'lov terminalari uchun yakka tartibdagi tadbirkorlardan undiriladigan ijara haqi (har bir oy uchun)	5 AQSH dol.*
To'lov terminalini ta'mirlab bo'lmaydigan darajada ishdan chiqarish yoki uni yo'qotish hollarida qo'llaniladigan jarima sanksiyalari	To'lov terminalining qoldiq qiymati + 50 AQSH dol.*
To'lov terminalariga texnik ta'minot xizmatini ko'rsatish (har bir oy uchun)	5 AQSH dol.*

* Milliy valyutada hisob-kitob operatsiya o'tkaziladigan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy kursi bo'yicha amalga oshiriladi.
